



Received: August 19, 2025
Accepted: September 23, 2025
Available online: September 25, 2025

Nilufar Namozova

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent
O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy
kommunikatsiyalar universiteti
Toshkent, O‘zbekiston

Nilufar Namazova

Candidate of Philological Sciences,
Associate Professor
University of Journalism and
Mass Communications of Uzbekistan
Tashkent, Uzbekistan
E-mail: gulnoranishanova@gmail.com
ORCID iD: 0009-0006-4018-7262

BEHBUDIY VA MILLIY MATBUOT

ANNOTATSIYA

Maqolada Turkiston jadidlari orasida milliy matbuotni yaratish, uni taraqqiy ettirish va jamiyatning ma’naviy hayotida muhim kuchga aylantirish yo‘lida faoliyat yuritgan Mahmudxo‘ja Behbudiyning o‘rni va xizmatlari atroficha yoritilgan. Behbudiy matbuotni “oyinai jahonnoma” deb ta’riflagan holda gazeta va jurnallarni jamiyatning ma’naviy uyg‘otuvchisi, xalqni ma’rifat va zamonaviy bilimga chorlovchi asosiy vosita sifatida ko‘rdi. Uning maqolalarida matbuotning ijtimoiy hayotdagi o‘rni, inson ongi va tafakkuriga ta’siri keng yoritildi. Behbudiyning targ‘ibotchilik faoliyatining eng muhim jihati uning matbuotni xalqqa yaqinlashtirishga intilishi bo‘ldi. U Turkiston jamiyatida gazeta o‘qish madaniyati shakllanmaganini, nashrlarning yetishmasligini va xalqning matbuotga qiziqishini oshirish zarurligini ko‘p bor ta’kidladi. Buning uchun u o‘zi maqola yozibgina qolmasdan, boshqa ziyolilarni ham matbuot safiga chorladi. Shu bilan birga, u gazeta orqali jamiyatdagi muammolarni ochiq muhokama qilish, adolatsizlikka qarshi kurashish va yangi g‘oyalarni tarqatish mumkinligini targ‘ib qildi. Maqolada Behbudiy asos solgan nashrlar va ularni chop etishdagi qiyinchiliklar ham alohida tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: milliy matbuot, jamiyat, ma’naviy hayot, yangi g‘oya, ziyoli, tafakkur, zamonaviy bilim, targ‘ibotchi, faoliyat.

BEHBUDI AND THE NATIONAL PRESS

ABSTRACT

The article provides a comprehensive analysis of the role and services of Mahmudkhoja Behbudi, who, among the Turkistan Jadids, actively worked to establish the national press, develop it, and turn it into an important force in the spiritual life of society. Behbudi, describing the press as an “oyinai jahonnoma” (a mirror reflecting the world), regarded newspapers and journals as the main means of awakening society spiritually and calling people to enlightenment and modern knowledge. His articles widely highlighted the role of the press in social life and its influence on human consciousness and thinking. The most significant aspect of Behbudi’s promotional activity was his effort to bring the press closer to the people. He repeatedly emphasized that in Turkistan society there was no culture of reading newspapers, that publications were lacking, and that it was necessary to increase public interest in the press. For this purpose, he not only wrote articles himself but also invited other intellectuals to join the ranks of journalism. At the same time, he promoted the idea that through newspapers it was possible to openly discuss social problems, fight against injustice, and disseminate new ideas. The article also provides a detailed analysis of the publications founded by Behbudiy and the difficulties he faced in publishing them.

Key words: national press, society, spiritual life, new idea, intellectual, thinking, modern knowledge, propagandist, activity.

KIRISH

Turkiston jadidlari orasida matbuot haqida ko‘p yozgan va uni tashviq-targ‘ib

etgan Mahmudxo'ja Behbudiy edi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Matbuot tadqiqotchisi sifatida ham Behbudiy nomini birinchilardan tilga olish mumkin. Gazetani "oyinai jahonnomi" deb bilgan Behbudiy uning foydalarini xalqqa tushuntirishdan avval jahon matbuoti tarixi bilan qiziqadi, uning dunyo xalqlari tamaddunidagi ahamiyatini o'rganib chiqadi. U 1907-yili "Tujjor" gazetasida chiqqan "Gazet nadur?" maqolasini jahon, Rossiya va musulmon mamlakatlari matbuoti tarixiga oid faktlar bilan boshlaydi. Behbudiy gazetachilik tarixini qadimgi Rim davlati bilan bog'laydi. "Hozirdan 195 sana muqaddam zamonlarga rum podshohlari keraklik amr va farmoyishlarni kog'azda yozib, umumiy xalqg'a bildurmoq uchun tarqatib va ko'runush joylarga osib xalq ma'lumotini ko'payturmoqiga sabab bo'lurlar edi. Hozirdan 1560 sana muqaddam yana farang hukumatlari orasig'a har bir yangi ish va keraklik xabarlarini yozib xalqg'a doimiy suratga tarqatmoq nafi zohir bo'lgan sababli ko'broq rasm bo'lub, mazkur yangi xabarlar yozilgan kog'azlarni gazet ismlik ikki tiyinlik oqcha badalig'a sotila ekanki, oning-chun "gazet" atalibdur. 1615 sanayi milodiyagacha gazetlar "dastnavis" va g'ayri muntazam chiqar ekan. So'ngra bosma bo'lub chiqa boshlabdur. Bora-bora barcha ilm va xabarlik mamlakat va hukumatlar xalq orasig'a jaridayi mo'tabar bo'lub, ilmiy, diniy, fanniy, siyosiy, sanoiy, ijtimoiy, ixtiroiy va har guna bahslarni yozmoqga boshlab hozirgi darajasig'a kelturdilar. So'ngralari ahli islomni mutaraqqiy va mutamaddin mamlakat va hukumatlar xalqi orasig'a joriy bo'ldiki, bu kun Misr, Istanbul, Hijoz, Quddus mamlakatlariga har xil gazetlardan yuzdan ziyoda chiqar hind va ibronga ham ko'paya boshladi", – deydi [Behbudiy, 1907].

Darhaqiqat, bugungi kunda ko'plab tadqiqotchilar Yevropada gazetachilik tarixi qadimgi Rimda Yuliy Sezarning "acta"lari bilan boshlanganini qayd etishadi. Behbudiy ham bu ma'lumotlarni manbalardan topgan. Matbuot tarixi haqida keltirilgan keyingi ma'lumot ham o'sha davr o'quvchilariga yangilik bo'lgani shubhasiz. Behbudiy xabarlar yozilgan qog'ozlar 2 chaqaga sotilgani uchun gazet atalibdur, deydi. Haqiqatan, manbalarda keltirilishicha, XVI asrda Venetsiyada narx-navo, kemalar qatnovi jadvali va boshqa zarur yangiliklar bitilgan varaqalar chiqarilib, o'sha paytda muomalada bo'lgan "gazette" deb ataluvchi tangaga sotilgani uchun varaqalar ham shunday atalgan. Keyinchalik Fransiya chiqarilgan "La gazett"dan boshlab nashrlar gazeta deb atala boshlangan. Ko'rinadiki, ma'rifatparvar Yevropa matbuoti tarixi haqida ma'lumotga ega bo'lgan.

ASOSIY QISM

Behbudiy Rossiya matbuotini ham qaysi davrdan boshlanganini yozadi. Ma'lumki, 1702-yili Pyotr I farmoni bilan Peterburgda ilk rus gazetasi "Vedomosti" nashrdan chiqqan. 1750-yillarga kelib Moskvada ham gazetalar chiqa boshlagan. Behbudiy qaysidir manbaga asoslanib, bu haqda shunday yozadi: "Rossiya mamlakatida 175-sanayi milodiyag'a bir necha martaba gazet chiqa boshlab va al-on har nav jarida va majallalarni adadi bir mingg'a yetib, balki, o'tadur. Rossiya musulmonlaridan boshlab chiqqan jaridayi muhtaram "Tarjimon"durki, janob Ismoilbek afandini sa'y va g'ayrati ilan bu kun yigirma besh yoshidur. Russiyada hurriyati matbuot joriy bo'lgan uchun 1905-sanasidan boshlab Rossiya musulmonlari g'ayrati ila 30dan ziyoda jarida va majallalar Rossiya olami islomiyag'a tulu' qilib, ammo o'qug'uvchi

va olg'uvchining ozligi uchun bugungi o'n qadaridan boshqasi chiqmadi. Ba'zisi doim fuqaro nafi va hukumat zarariga yozib turgani uchun hukumat tarafidan yotqurildi" [Behbudiy, 1907], – deydi. Maqolada Behbudiy dunyo mamlakatlaridagi xalq va matbuot adadini muqoyasa qilib, eng ko'p gazeta chiqadigan mamlakatlarni ko'rsatib beradi. Masalan, Qo'shma Amerika xalqi 80 million – 20000 jarida, Germaniya: 56 million – 6400 jarida; Inglis: 41 million – 4100 jarida; Belgiya 7 million – 1050 jarida; Portugaliya 5 million – 250 jarida; Buxoro: 2 million – yo'q; Turkiston: 10 million – birgina "Tujjor"; Jami Rossiya mamlakatlari: 20 million (musulmon xalqlari – N.N.) – o'ttizga chiqib, o'nga tushdi, deya 27 mamlakat gazetalari adadini ko'rsatib beradi.

Behbudiy 1905-yilgi Oktabr manifestidan keyin 30ga yaqin musulmon millatlari gazetalari chiqib, ko'p o'tmay, ularning soni o'nta qolganini afsus bilan yozadi. Buning birinchi sababini xalqning gazeta o'qimasligiga yo'yadi. U boshqa maqolalarida ham bunday tanqidiy fikrni tez-tez takrorlaydi.

1906-yili Turkistonda hali ilk milliy gazetalari dunyo yuzini ko'rmagan fevral oyida "Ulfat" gazetasida chiqqan maqolasida Xiva xoni va saroy ahlini "Ulfat" gazetasiga obuna bo'lganini ibrat qilib ko'rsatib, "... biz Osiyoyi vustolari vahmig'a ketib fanniya o'qumoq bir gunoh edi; alhamdulillah, o'yla gunohlar bu sanalar savobg'a mubaddal bo'lub, homiyi islom ahli qadrxonlarimiz, madori shariat qozilarimiz... jaridalaridan istifoda etmog'a boshladilar", – deydi. Maqolada Behbudiy Buxoroning to'rtidan biriga teng Serbiya mamlakatida ikki million xalqi uchun oltmishdan ziyod, 2 milliondan ziyod yunoniy greklarning 200dan ziyod gazetasi borligini, 9 milliyonga yaqin O'rta Osiyo musulmonlarining bir gazetasi yo'qligini yozar ekan, "endi gazeta o'qumoqg'a boshladiq, sho'yla ketabersa, Buxoro, Xiva yoinki O'rta Osiyo sokinalaridan bir-ikki gazeta chiqar, balki bir qoch asr so'ngra Serbiya kabi taraqqiy edar. Hayhot! Ibrat lozim!..." [Behbudiy, 2021] deydi.

Ko'rinadiki, Behbudiy bu maqolasida milliy nashrlar yo'qligiga millatning gazeta mohiyatini tushunmaganligini sabab qilib ko'rsatadi.

Mahmudxo'ja Behbudiy Turkiston va Rossiyadagi boshqa musulmon matbuotining doimiy mualliflaridan edi. Hatto chor hukumatining nashri "Turkiston viloyati gazetasi"ga ham muntazam yozib turgan. Matbuotning kuchini yuqori baholagan ma'rifatparvar undan foydalanishga intilgan va boshqalarni ham shunga chaqirgan. 1906-yildan chiqqan boshlagan "Taraqqiy", "Xurshid", "Shuhrat" gazetalari hukumat tomonidan yopib qo'yilgach, "xomushlik go'shasinda" yotgan ziyolilarga Mahmudxo'ja Behbudiy murojaat bilan chiqadi. U ziyolilarni o'lkadagi yagona nashr bo'lgan "Turkiston viloyati gazetasi"ga yozib turishga undaydi. Milliy nashrlarga nisbatan turli ig'volar tarqatgan bu gazetaga nisbatan toshkentlik jadidlarning munosabati ham salbiy edi. Xalq orasida bu gazeta haqida salbiy taassurot uyg'ongani uchun Behbudiy: "Ushbu gazet xalqni uncha gumon qilganidek qaro emasdur. Chunki ba'zi yozganlari rasmiy hurriyat gazetalari so'zidek...", – deydi. Behbudiy ziyolilarni "Taraqqiy", "Xurshid", "Shuhrat", "Tujjor" gazetlariga har vajhdan maqola yozar edilar, ushbu gazetga ham yozsunlar, hech bo'lmaganda bir olti oy yozib ko'rsunlar... na natija berar, ko'p xushomad qilmaymiz desalar, o'rta qalam ila yozsunlarki, tajribadan

chiqu. Bizim bu so'zimizga ehtimolki ba'zi muharrirlarimiz rozi bo'lmay, balki qaro bo'ldi desa, biz rangga boqmay, natijaga boqarmiz" [Behbudiy, 2021], – deydi. Ko'rinadiki, Behbudiy uchun natija muhim, xalqqa so'z aytish muhim, matbuotning ommaviy fikr tarqatuvchilik kuchidan foydalanish muhim edi. Aytish joizki, uning bu gazetada turkistonlik boshqa ziyolilarga qaraganda ko'proq yozib turgani ham tanqidga uchragan. Behbudiy buni: "Kafkaz muharrirlari va kafkazlilar bandag'a dedilarki, Kafkaz muharrirlari sizni tahrir ettigingizni missioner tahti idorasinda chiqaturgan "Turkiston" jaridasig'a ko'rub sizdan ishtiboh va ba'zan nafrat etarlarki, Mahmudxo'ja sho'yla gazetaga doimo maqola yozar, albattaki, munda shay vor... deyurlar. Man esa yozgan maqolalarimdan ba'zisini ko'rsatmoq-la va yo lozim dalillar etmoq-la ba'zan daf'i ishtiboh eta bildim va ba'zan bilmadim" [Behbudiy, 2021], – deydi. Nima bo'lganda ham, Behbudiy bunday takfir va tuhmatlarga qaramay, "Turkiston viloyati gazetasi"ga yozib turdi va boshqa ziyolilarni ham bunga undadi. Millatni fikriy o'stirish, hurriyatga tayyorlashda matbuotni muhim qurol deb bilgan ma'rifatparvar undan xalqning mosuvo bo'lib qolishini istamasdi. Mustabidlarning bu ishda tap tortmasligi ilk milliy nashrlar taqdirida ko'rildi. Shuning uchun Behbudiy ayrim taraqqiyparvarlar tanqidiga qaramay, Turkiston xalqi podshoga sodiqligini, uning siyosatini qo'llab-quvvatlashi, qarshi borish fikri yo'qligini maqolalarida qayta-qayta ta'kidlagan.

Shunga qaramay, xufyalar va amaldorlar tomonidan uning maqolalari tarjima qililib, hukumatga yetkazib turilgan. Milliy davlat arxivida "Turkiston general-gubernatorining kanselyariyasi delo"sida saqlanayotgan "Osiyo" gazetasi haqidagi hujjatlarda Behbudiy nomi qayd etilgan. Ya'ni, ushbu nashrni nima uchun yopish kerakligini ko'rsatish uchun Behbudiyning gazetada chiqqan maqolasi tarjima qilib beriladi. Sirdaryo viloyati harbiy gubernatoriga yozilgan "raport"da quyidagi ma'lumotlar keltirilgan: "Toshkent shahrida sart tilida nashr etilayotgan "Osiyo" nomli gazetaning muharrir-noshiri Bektemirov janoblari mazkur gazetaning ikkinchi sonidan boshlab, turli shaxslar imzosi bilan siyosiy mazmundagi maqolalarni chop etib, Turkiston o'lkasi mahalliy aholisi orasida hukumat harakatlari to'g'risida ataylab yolg'on ma'lumotlar tarqatmoqda va shu yo'l bilan mavjud davlat tuzumiga qarshi kurashishga tayyorlamoqda. Masalan:

1. Gazetaning ikkinchi sonida samarqandlik Mufti Mahmud Hoji Behbud Hoji o'g'lining "Tatarlarning harakatlari" sarlavhali maqolasi chop etilgan. Maqola muallifi o'lka mahalliy aholisini Rossiya imperiyasidagi boshqa millatlardan ta'lim va taraqqiyotda orqada qolganlikda ayblar ekan, bog'chasaroylik tatar gazetasi "Tarjimon"ning muharriri Gasprinskiyni musulmonlar ma'rifatchisi sifatida ko'rsatib, quyidagilarni yozadi:

"Biz hayotimizning kamchiliklarini bartaraf etish uchun milliy gazetalarga muhtojmiz. Turkistonda mavjud bo'lgan gazeta ("Turkiston mahalliy gazetasi") ni ko'pchilik "missionerlar gazeta"si yoki "foydali emas" deb hisoblab, o'qimaydi. Turkistonlik ayrim shaxslar milliy matbuot ahamiyatini anglab, "Xurshid", "Shuhrat", "Tujjor" kabi gazetalarda chiqara boshladilar, ammo ularning barchasi 1-2 oy ishlab, zo'ravonlik ta'sirida yoki o'z xohishlari bilan yopildi va bu holat biz uchun g'am va

afsus sababidir.

Hozirgi kunda tatarlarning ma'rifatparvar ta'siri tufayli "Osiyo" gazetasining birinchi soni chiqdi, uning muharriri va noshiri bo'lib qalamga ega bo'lgan mehmon tatar – muhtaram Ahmadjon Bektemirov hisoblanadi. Gasprinskiyning ta'siri va tatarlarning harakatlariga qarang: bitta mehmon tatar Turkistonning 10 millionlik aholisini o'qitmoqda. Bu holat ilmli, bilimli va boy insonlarimiz uchun aniq bir saboq va dalil bo'lsinki, biz turkistonliklar ta'lim sohasida orqada qolganmiz va zamonaviy hayot oqimida mustaqil harakat qilishga qodir emasmiz. "Osiyo" gazetasi biz uchun juda zarur va uni qo'llab-quvvatlash bizning ma'naviy burchimizdir.

Bektemirov janoblariga esa shunday maslahat beramiz: xalqimizda siyosiy yetuklik yo'q; ko'pchilik, balki barchalari shaxsiy manfaatlarini o'ylab, millat, ta'lim va vijdonni ham sotishga tayyorlar. Bunday aholi yashaydigan mamlakatda gazeta faoliyatini davom ettirish uchun ehtiyotkorlik bilan yoritish va hatto hukumat roziligini qozonish maqsadida so'zlarni tanlab yozish lozim. Xalqda millat farovonligi g'oyasi mustahkamlangandan keyingina kengroq va erkin yozish mumkin bo'ladi".

2. Gazetaning 4-sonida qo'qonlik Mulla Tursun Hoji Hamid Hoji o'g'lining "Musulmonlar, diqqat qilinglar!" sarlavhali maqolasi chop etilgan. Unda muallif Qo'qondagi Mingoyim madrasasining ayanchli ahvolini tasvirlar ekan, shunday yozadi: "Xon zamonida mashhur, boy va ko'psonli madrasa bo'lgan bu muassasa, vaqf mablag'larining tortib olinishi sababli, boshqa madrasalar kabi yarim vayrona holatga kelib qoldi".

18 may. 1907-yil. Nadvorniy maslahatchi T.Kiyasbekov"

Ushbu raport tagidan "21.1908. Спешно" degan yozuvdan so'ng "Raport va ma'lumotni Turkiston general-gubernatoriga taqdim etib, Siz hazrati oliylaridan mazkur gazetani yopish haqida amr berishingizni so'rayman", deyilgan.

Ushbu yozuvlar tagida "Сопласен" degan yozuv va imzo bor (Fond 1, opis 4, ro'yxat 1254).

Ko'p o'tmay gazeta chiqishdan to'xtagan. Ko'rinadiki, mustabidlar jadidlarning ma'rifatparvarlik harakatlari mohiyatida o'zlari uchun katta xavf ko'rgan va ilk milliy nashrlarni chiqarishga ruxsat bersa-da, tez orada ularni yopib qo'ygan. Biroq Mahmudxo'ja Behbudiy bu nashrlarning yopilishida mahalliy xalqning qarshiligi ham sabab bo'lganini ta'kidlaydi. Bir maqolasida "Toshkandda bir necha jaridalar chiqdi, mamnu'ona ko'ra ularni ta'tiliga chinovniklardan ko'ra ko'broq yerlilar sabab bo'lubdurlar. Chunki jarida va muharrirlarni ruslarga na ishlari bo'lsun, balki yerlilari isloh etmoq ila odatan mukallafdurlar" [Behbudiy, 2021], deydi.

Yana bir maqolasida "...bizni birdan ellik sana muqaddamgi vaqtg'a qaytmoqni xohlaydurganlarimiz yuzda to'qson to'qquz prosentdur. Bu da'voni aslo mubolag'asi yo'qdur, bizni taraqqiyparvar muharrirlarimiz hukumatdan ziyoda aholidin tazyiq ko'radurlar" [Behbudiy, 2021], – deydi.

Darhaqiqat, gazetalar faoliyatiga nafaqat hukumat, balki uning yo'rig'ida yuruvchi kimsalar ham qarshilik ko'rsatgani manbalarda qayd etilgan.

"Shuhrat" gazetasining 14-fevral sonida "Danusi namima" (chaqmacha qarlik) sarlavhasi bilan idoraning bir xabari bosilgan. Unda: "Eshitilmish xabarlarga

qarag'onda o'z musulmonlarimizdan ba'zi "danuschi" nammomlar paydo bo'lib, gazetamizdan "nachalstvo"ga "danus" qilmaq fikrida yelka qilg'on emishlar", – degan axborot berilgan. Gazeta muharriri A.Avloniy: "Gazetamizning maslaki milliy, betaraf siyosiy o'lub, umerenno-progressivnaya politicheskaya gazetadur. Yozg'on maqolalarimiz ham ushbu maslakimiz o'lg'on e'tidol va haqqoniyat doirasida o'lub, nozir va senzurlar tarafidan haqlik uzra tarjima qilinub, tegishli mahkamaning sizni(ng) "danus"larga hech bir ehtiyoji yo'qdur" [Avloniy, 2009], – deydi. Biroq gazeta 10-sonidan keyin yopiladi.

O'sha davrda rus tilida nashr etilgan "Turkistan" gazetasida milliy nashlarning yopilishini mahalliy xalq vakillari hukumatdan talab qilganini shunday yozadi: "Toshkent mullalari va qozilari "Taraqqiyy" gazetasidan o'zlarining haddan tashqari norozi ekanliklarini bizga ma'lum qiladilar. Ular gubernatordan gazetani yopishni va G'abidovga har qanday gazeta nashr etishni taqiqlashni yolvorib so'rab aytadilar: "Xalq bizning so'zlarimizni tinglamayapti. Endi bizga butunlay ishonmay qolyapti. Biz ularga o'z ta'sirimizni va ishonchimizni butunlay yo'qotib qo'yishimiz mumkin, demak, bu hukumatga ham foydali emasdir" [Jalolov & O'zganboyev, 1993].

Mahalliy xalqning milliy matbuotga qarshi chiqishida, albatta, N.Ostroumov singari rus amaldorlarining "sidiqidildan xizmatlari" ham katta rol o'ynagan. "Taraqqiyy"ning ilk soni chiqishi bilanoq "Turkiston viloyati gazetisi" unga qarshi xalqni gij-gijlab axborot urushi uyushtiradi. Munavvarqorining "Bizning jaholat jahli murakkab" maqolasiga munosabat bildirib shunday yozadi: "Munavvarqori... qadim ul-ayyomdan to shu vaqtgacha bolalarimizg'a ta'lim bergon ustodi motaqaddum (ilgari o'tgan)larimizni(ng) haqiq'a yozg'on bir necha noloyiq iboratni o'qub nihoyatda taajjub qildik... Munavvarxo'ja ustod va muallimi guzashtagon va holilarimizni (o'tgan va hozirgi muallimlarimizni)... "johil, nodon va jahli murakkabda qolg'on va zolim" iboratlar ilan va bolalarni otasini "behamiyat va bediyonat" so'z ilan gazetka e'lon qilmoq qanday besharm va bexayolikdur, go'yoki bu iboratlarni ul domlalarini(ng) yuziga aytibdur" [Do'stqorayev, 2009; 137].

Aytish joizki, ilk milliy nashrlar chiqqan davrda matbuot aksariyat Turkiston xalqi uchun yangilik, turkistonlik ziyolilar uchun yangi faoliyat turi edi. Garchi 30 yildan ortiq "Turkiston viloyati gazetisi" chop etilgan bo'lsa-da, shaharlardagi ilg'or fikrlilarni aytmaganda katta hudud aholisi gazeta o'qimas, "qo'liga ham ushlamagan" edi. Ziyolilar buni "Bizning xalq aksariyat ila g'azeta o'qiyamaydur" [Muin, 2005; 56], – deb ta'kidlashadi. Hatto 1924-yili sho'ro hukumati o'rnatilib, kuchga kirgan davrda ham "xalqimiz orasida hali ham gazeta ko'rmagan odamlar ko'p", deb axborot berilgan edi.

Shuning uchun matbuotda jadidlar tomonidan gazeta o'qishga targ'ib qiluvchi o'nlab maqolalar chop etildi. Masalan, 1907-yili "Tujjor" gazetasining 11-noyabr sonida Mahmudxo'ja Behbudiyning "Gazet nadur?", "Sadoyi Turkiston" gazetasining 1915-yil 31-mart sonida Rauf Muzaffarzodaning "Milliy hayot va Turkiston musulmonlari", Munavvarqori Abdurashidxonovning "Sadoyi Turkiston" gazetasining 47-sonida "Hurmatlu vakil va mushtariylarimizg'a murojaat" sarlavhali tahririyat da'vati, Hoji Muinning "Turkiston viloyatining gazetisi"ning 1911-yil

24-noyabr sonida “G‘azeta o‘qumoq foydalari” maqolasi, Obidjon Mahmudovning “Sadoyi Farg‘ona” gazetasining 1914-yil 2-sonida chop etilgan “G‘azeta nadur, na uchun lozim” singari maqolalari shular jumlasidan.

Ilk milliy nashrlar yopilgandan keyin ham jadidlar harakatdan to‘xtab qolishmagan. Toshkentda chiqayotgan oxirgi milliy gazeta “Tujjor” yopilgandan keyin Behbudiy birinchilardan bo‘lib gazeta chiqarish harakatiga tushadi. H.Saidov Behbudiyning zamondoshlari tomonidan yozilgan “1908-nchi yildan o‘z idorasida biror gazeta chiqarmoq fikriga tushib, 1913-nchi yil aprel oyinda bu maqsadga yetishub “Samarqand” gazetasining bir necha sonini chiqarishga muvaffaq bo‘ldi” degan izohiga asoslanib, “Behbudiy gazeta ochish uchun besh yil sargardon bo‘ldi” [Saidov, 2000; 96], – deb yozadi. S.Ahmad M.Behbudiyning 1913-yili 14-fevralda Samarqand viloyat harbiy gubernatoriga o‘zbek va tojik tilida gazeta chiqarish uchun “Iltimosnoma” bergani va 10-aprelda gazetani chiqarishga muvaffaq bo‘lganini qayd etadi [Ahmad, 2021; 81].

Zamondoshlari tomonidan olqishlab kutib olingan, el-u xalqning ko‘zini ochishga bois bo‘lgan bu gazeta olti oy ham chop etilmadi. Besh oy chiqqandan keyin Behbudiy gazetani yopish haqida e‘lon beradi. Bu xabardan keyin gazetaga uni to‘xtatmaslik haqida iltimoslar keladi. Z.Abdurashidovning tadqiqotlariga ko‘ra, Behbudiy Gasprinskiyga yo‘llagan maktubida gazetaning faoliyatini davom ettirish uchun taraqqiyparvarlar shirkat tashkil qilishini bildirib, bu “shirkatga a‘zolik badali 25 rubl qilib belgilanadi. Shirkat o‘z ishini boshlashi bilan gazeta nashri ham qayta yo‘lga qo‘yiladi”, deydi [Abdirashidov, 2023]. Biroq ko‘p o‘tmay, Tavallo (To‘lagan Xo‘jamyorov) “Samarqand” gazetasining 1000 rubl zarar ko‘rib yopilganini yozadi [Tavallo, 1913]. Gasprinskiy “Tarjumon” gazetasida Behbudiyning gazetani kuchli g‘ayrat bilan boshlagani, ammo uni qo‘llab turgani aqalli 1000 obunachi topilmaganini afsus bilan ta’kidlaydi.

Shundan keyin Samarqanddagi ilk milliy gazeta o‘rniga Turkistondagi ilk milliy nashr sanalgan “Oyna” jurnali dunyo yuzini ko‘rdi. Tavallo (To‘lagan Xo‘jamyorov) “Turkiston viloyati gazetisi”da chop etilgan maqolasida “...xudoning qudrati ila bizning sho‘ring qurg‘urlar uchun Samarqanddin bir gazet “Samarqand” isminda vujudga kelgan edi. Biz g‘aflatzadalar anga ahamiyat bermadik, o‘qimadik va qadriga yetmadik. Bizlarning kasofatimizga uchrab, 44-nchi numirida bir ming so‘m sarf qilib to‘xtagan edi... Janob Mahmudxo‘ja muharrir g‘ayrat qildilar. “Samarqand” nomidin gazet o‘rnig‘a “Oyina” nomlik haftali jurnal chiqardilar. “Samarqand” mushtariylarina “Oyina” yuborildi”, – deydi.

Abdulla Avloniy ta’rifidagi “jurnallarning eng birinchisi va yaxshisi” [Avloniy, 1924], zamondoshlari tomonidan sevib o‘qilgani e’tirof etilgan bu jurnalning taqdiri ham gazetanikidan uncha farq qilmadi. Ya’ni, jurnal moddiy qiyinchilik sababli yopildi. “Oyna” jurnali haqida tadqiqotchilar tomonidan ko‘p fikrlar bildirilganligi uchun biz bu haqda batafsil to‘xtalmaymiz. Qisqacha aytish joizki, jurnalining yopilishi haqida ikki sabab ko‘rsatiladi: turli yoqdan moddiy yordam ko‘rsatilib, uni chiqarib turishga ko‘plab iltimos va da’vatlar bo‘lishiga qaramay, jurnal moliyaviy xarajatlarning ko‘pligi sababli to‘xtatiladi. Ikkinchi sabab ham birinchisiga bog‘lanadi, ya’ni

obunachilari soni kamayib borishi tufayli. Tadqiqotchilar buning sababini jurnalning qiziqarli chiqmaganligi bilan izohlaydilar. Jumladan, Z.Abdurishidov tadqiqotlarida A.Fitratning “jurnal o'quvchilarini xursand qila olmadi” – degan so'zlarini va jurnalda chop etilgan bir-biriga qarama-qarshi mazmundagi turli maktublarni misol sifatida keltirib, bu “jurnal xalq qalbiga umumiy yo'l topa olmaganidan darak beradi” [Abdirashidov & Egamqulova, 2023], – deb yozadi. Behbudiy zamondoshi G.Andreyev TVGda chop etilgan maqolasida jurnalning birinchi sonini sharhlab, zerikarli maqolalarga to'la jurnal deydi.

Lekin o'z davrida jurnal haqida bunga zid fikrlar aytilgan. Jumladan, Ziyo Said bu nashrni “jadidlarning suyuqlik jurnali” deb e'tirof etadi; nashrning “Qofqoz, Tatariston, Eron, Afg'oniston, Hindiston va Turkiyagacha tarqalgani” [Said, 1927; 53], albatta, jurnal o'z davrining “ko'zgusi” bo'la olganini ko'rsatadi. Aytish joizki, Samarqand gazetasida ham, dastlabki yili haftalik, keyin ikki haftada bir chiqqan jurnalda ham Behbudiyning o'zi asosiy ishlaydigan kuch edi. Mualliflarning yetishmasligi ham, albatta, nashr saviyasiga ta'sir qiladi. “Na uchun iltifot etmaylar” maqolasida Behbudiy uchta tilda chiqqan nashrning yozuvchi-mualliflari ham ko'p bo'lishini umid qilgani, lekin vatandosh ziyolilarning e'tiborsizligidan ranjiganini ma'lum qiladi: “150 ming musulmon nufuslik va necha dasta muharrir, shoir va musannifi bor va bir necha jarida chiqargan va markazi Osiyoyi Vusto bo'lgan Toshkand shahridin forsiy yo turkiy, yo rusiy valav bir satr bo'lsun, bir shay kelgan yo'q. Bir milliyon odamlilik Xivadan bir mushtariymiz bor, ammo bir satr maktub olmaduk. Ikki milliyon odamlilik Buxorodan faqat janob Mirzo Siroj Hakim bir-ikki maqola yozdilar. Ikki milliyong'a qariyb nufuslik Farg'ona viloyatidan valav bir maqola bo'lsun kelmadi” [Behbudiy, 2021].

Jurnalga qarshi tashviqot ishlari ham obunachilar sonining tushib ketishiga sabablardan biri deyish mumkin. Jurnalda tanqidiy maqolalarning berilishi xalq orasida norozilik keltirib chiqargani va ulamlarning uni o'qimaslikka tashviqot olib borgani – bularning barchasi Behbudiyning hafsalasini so'ndirdi.

Jurnalda Behbudiyning asab xastaligiga chalingani va obunachilar sonining 500dan 300ga tushib qolgani uchun yopilishi haqidagi e'londan so'ng keyingi sonlaridan birida “...maktub va telegraf ila muharrirdan iltimos etganliklari uchun “Oyina”ni chiqarib turmoqg'a qaror berildi. Ammo mushtariy ozligidan mehnati ozaymasa ham zarari ozaysun, – deb birinchi noyabrda haftada uch daf'a chiqarilur” degan bildirishnoma berilgan [Saidov, 2025]. Biroq ko'p o'tmay, 68-soni chiqib jurnal yopiladi.

Turkiston taraqqiyparvarlari ikkala nashrning yopilishiga ham qarshi chiqishdi. Lekin nashrlarning o'quvchi qo'liga yetib borguncha bo'lgan xarajatlari uni chiqarishga imkon bermadi. Behbudiy buni gazeta chiqarish asnosida aniq aytgan edi, ya'ni gazeta 5 oy chiqqan bo'lsa, “5 oy tarafida muharrir va va xodimlar, idora ijarasi, faytan puli, qog'oz kabi xarajatlarni qo'shmaganda ham “faqat murattib, kotib va muvazahlarg'a, matbaa, markag'a oqcha sarf etib idoraga 1000 so'mdan fazla zarar bo'ldi. Ushbu zararni bir necha samarqandiy taraqqiyparvar zotlar ila noshir o'z kissalaridin bergani uchun mushtariylarg'a zarar yuklanmadi” [Behbudiy, 2013].

Xalqning gazeta o'qimasligi, matbuotga qarshi tashviqot, tannarxning

qimmatligi nashrlarni moddiy tanglikka va faoliyatini to'xtatishga olib keldi.

Toshkent va Farg'onada chiqqan "Sadoyi Turksiton" va "Sadoyi Farg'ona" gazetalari faoliyatida ham bunday muammolar takror kuzatildi. Behbudiy bu ikki nashr chiqishini qutlab yozgan maqolasida: "Ululehtirom muharrir, noshir-u muovinlarini hamda millatni tabrik etib, Olloh taolodan alarg'a quvvat, g'ayrat va sabot istid'o etarmiz. Millatg'a iona va olib o'qumoqlarini ojizona tavsiya etarmiz, chunki matbuot chirog' va niholdek bo'lub, anga yog' va suv berib tarbiyat qilmaguncha, ma'ozolloh, so'nub qurumog'i tabiiydur [Behbudiy, 2021].

Behbudiy bu ikki nashr taqdiridan xavotirga tushadi. "Yana zahmat muhtaram yoshlarga, taraqqiyparvarlarga yuklanur. Alar g'ayrat etmaguncha mushtariy topilmas-da, yoqilgan chirog'lari o'chur. Sobiq "Samarqand" va hozirgi "Oyina"ni chiqishig'a bir yil to'ladur. Hanuz mushtariysi 600 atrofindadurki, bu ham taraqqiyparvarlarning g'ayrat va sa'yi iladur. Maafih idora har oy zarar etar... bu yangi tulu' etgan Farg'ona va Turkiston sadolarining istiqboli bizni nihoyatda tushunturub qorong'u fikrlar ustimizg'a qoplar.." [Behbudiy, 2021], – deydi. Behbudiy taraqqiyparvarlarni mushtariy to'plashda himmatli va fidoyi bo'lishga chaqiradi. "O'n milliyon tatar musulmonlarining o'ttuz jarida va majallasi davom etganda, o'n milliyon o'zbek, arab, tojik va turkman Turonining uchgina matbuoti davom etmasa. Xudo va Rasul ham xalq olam na der? Ovrupoda ming jarida, majalla va matbuot muvaqqatan chiqarub qo'ydurgan o'n milliyonlik xalqlar ko'pdurki, biz alarni kofir va o'zimizni musulmon va ham bizga ilm farz hamda "beshikdan mazorgacha farz" deb e'tiqod qilurmiz! Qani amal? Bu ishlarni o'ylaguncha insonning ruhi osmonga uchub, jasadini yerg'a cho'kmog'i kelur..."

"Sadoyi Turkiston" gazetasini ochgan U.Xo'jayev, Munavvarqori, Abdulla Avloniy singari ziyolilar gazeta ta'minoti uchun turli choralarni oldindan ko'rib qo'yishadi. Masalan, xufyalarning ma'lumotiga ko'ra, "Xo'jayev va sheriklari gazetani iqtisodiy jihatdan quvvatlantirish uchun Kolizey binosida tataristonlik ashulachi Tuxfatullinning konsertini uyushtirib, gazetada uning suratini e'lon qilishgan" [Ahmad, 2021; 79].

Hukumat bu gazetani yopish uchun barcha choralarni ko'radi. Turkiston tuman saqllov bo'limi materiallaridagi ma'lumotga ko'ra, gazeta (Sadoyi Turkiston) chiqishini to'xtatishga intilib, general-gubernator davlat bosmaxonalari ushbu gazetani chop etish uchun buyurtma olmasliklari haqida ko'rsatma beradi [Ahmad, 2021; 80]. Xususiy bosmaxonalar asosan rus matbaachilarning qo'lida bo'lib, ular ham doimiy hukumatning nazoratida bo'lgan. Matbaa xarajatlarining qimmatligi foyda ilinjida Turkistonga kelib bosmaxona ochgan rus noshirlarining ham, siyosiy tomondan hukumatning ham manfaatlariga to'g'ri kelar edi. Shuning uchun ham o'ziga to'q jadid ziyolilari boshlagan gazetachilik ishi mahalliy taraqqiyparvar boylarning ko'magida ham ildamlab ketmadi. 1917-yilgacha butun Turkistonda mahalliy musulmonlar tomonida beshta bosmaxona bo'lgan. Mahalliy xalq vakillari ochgan xususiy bosmaxonalar ham uzoq faoliyat yuritmagan. Ular sotilgan yoki hukumat tomonidan ta'qiqlangan. Shunday qilib, gazeta tannarxi atayin oshirilgan. Ikkinchi davr matbuoti ham bir yildan oshiq davom etmadi.

1917-yil fevral inqilobidan keyin Behbudiy Samarqand ziyolilari bilan birga “Hurriyat” gazetasini tashkil etdi. “Hurriyat” gazetasining birinchi soni 1917-yil 16-aprelda bosmadan chiqdi. Ushbu ilk sondan gazetaning tashkilotchilari kimlar ekanligini bilish mumkin, ya’ni: “Hurriyat” gazetasiga ushbu muhtaram muharrirlar muovinat qilurlar: 1) Mudarris domla Sayid Ahmad Vasliy, 2) Muftiy Mahmudxo'ja Behbudiy, 3) buxoroli mulla Abdurauf Fitrat, 4) Sayid Ahmad Siddiqiy”, – deya gazetaning tahrir hay’atida alohida yozib qo’yilgan. “Hurriyat” yurt ozodligi uchun kurashgan vatandoshlarimiz minbari bo’ldi. Qo’qon muxtoriyati qonga botirilgach, gazetaga ham tazyiq o’tkazila boshlandi. “Hurriyat” nomi bilan uning oxirgi 87-soni 1918-yil 30-aprelda chiqadi. Hoji Muinning yozishicha: “Oktabr o’zgarishidan keyin “Hurriyat” gazetasi bir yoqdan, hukumatning qisishi bilan o’zining hurriyatini yo’qota boshladi. Ikkinchi yoqdan, moddiy jihatdan ham og’irlikda qoldi. Shuning uchun to’qталurg’a majbur bo’ldi. Uning o’rnida hukumat tomonidan “Mehnatkashlar tovushi” gazetasi chiqoruldi”.

Mahmudxo'ja Behbudiyning bu gazetada bitta maqolasi chop etildi. “Hurriyat” gazetasining jonkuyarlaridan bo’lgan Behbudiy bu gazeta bilan yaqin hamkorlikni davom ettirmadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, Mahmudxo'ja Behbudiyning matbuot sohasidagi faoliyati Turkiston jadidchilik harakatida o’ta muhim ahamiyatga ega bo’ldi. U o’z asarlari va maqolalarida matbuotning ma’naviy va ijtimoiy kuch sifatidagi ahamiyatini ochib berdi, uni xalqni uyg’otish va taraqqiyotga yo’naltirish vositasi sifatida talqin qildi. Behbudiyning “Samarqand” gazetasi va “Oyina” jurnali milliy matbuot tarixida ilk qadamlar sifatida katta ma’naviy iz qoldirdi. Uning matbuot sohasidagi merosi milliy jurnalistika tarixining ilk poydevorlaridan biri sifatida ahamiyatga ega bo’lib, uning tashabbuslari va g’oyalari keyingi avlod ziyolilari uchun ham yo’l-yo’riq bo’lib qoldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdirashidov, Z. (2023). *Turkistonda jadidchilik*. Toshkent: Akademnashr.
2. Abdirashidov, Z., & Egamqulova, N. (2023). *Borar yo’ling Turkistondir...*. Toshkent: Akademnashr.
3. Ahmad, S. (2021). *Ubaydulla Xo’jaev*. Toshkent: Info Capital Group.
4. Avloniy, A. (1924-yil 24 iyun). Burung’i o’zbek vaqtli matbuotining tarixi. “*Turkiston*” gazetasi, 295.
5. Avloniy, A. (2009). *Tanlangan asarlar* (B.Qosimov (To’pl., nashr. tayyorlov.), 2 jildlik). Toshkent: Ma’naviyat.
6. Behbudiy, M. (1907). Gazeta nadur?. “*Taraqqiy*” gazetasi, 11.
7. Behbudiy, M. (1913-yil 13-sentabr). Muhtaram mushtariylarimizga. “*Samarqand*” gazetasi.
8. Behbudiy, M. (2021). *Tanlangan asarlar* (S.Ahmad (Tuzuv.), 2 jildlik). Toshkent: Akademnashr.
9. Do’stoqorayev, B. (2009). *O’zbekiston jurnalistikasi tarixi*. Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
10. Jalolov, A., & O’zganboyev, X. (1993). *O’zbek ma’rifatparvarlik adabiyotining taraqqiyotida vaqtli matbuotning roli*. Toshkent: Fan.

11. Muin, H. (2005). *Tanlangan asarlar* (B.Do'stqorayev (Tuzuv.)). Toshkent: Ma'naviyat.
12. Said, Z. (1927). *O'zbek vaqtli matbuoti tarixiga materiallar*. Samarqand-Toshkent: O'zbekiston davlat nashriyoti.
13. Saidov, H. (2000). *Ma'rifat libosidagi ozodlik*. Toshkent: Ma'naviyat.
14. Saidov, H. (2025-yil 29-avgust). "Samarqand", "Oyina", "Behbudiya". "*Vatanparvar*" gazetasining rasmiy veb sayti'da. <https://mv-vatanparvar.uz/799/>.
15. Tavallo. (1913). Samarqand gazetasi. "*Tarjimon*" gazetasi, 217.

REFERENCES

1. Abdirashidov, Z. (2023). *Jadidism in Turkistan*. Tashkent: Akademnashr.
2. Abdirashidov, Z., & Egamqulova, N. (2023). *Your path leads to Turkistan...*. Tashkent: Akademnashr.
3. Ahmad, S. (2021). *Ubaydulla Khojaev*. Tashkent: Info Capital Group.
4. Avloniy, A. (1924, June 24). The history of the early Uzbek periodical press. *Newspaper of 'Turkistan'*, 295.
5. Avloniy, A. (2009). *Selected works* (B.Qosimov (Comp., Ed.), 2 vols.). Tashkent: Spirituality.
6. Behbudi, M. (1907). What is a newspaper?. *Newspaper of 'Taraqqiy'*, 11.
7. Behbudi, M. (1913, September 13). To our esteemed subscribers. *Newspaper of 'Samarkand'*.
8. Behbudi, M. (2021). *Selected works* (S.Ahmad (Comp.), 2 vols.). Tashkent: Akademnashr.
9. Dostqorayev, B. (2009). *History of Uzbek journalism*. Tashkent: Publishing and Printing Creative House named after Gafur Gulom.
10. Jalolov, A., & Ozganboyev, Kh. (1993). *The role of the periodical press in the development of Uzbek enlightenment literature*. Tashkent: Science.
11. Muin, H. (2005). *Selected works* (B.Dostqorayev (Comp.)). Tashkent: Spirituality.
12. Said, Z. (1927). *Materials on the history of the Uzbek periodical press*. Samarkand-Tashkent: Uzbekistan State Publishing House.
13. Saidov, H. (2000). *Freedom in the garb of enlightenment*. Tashkent: Spirituality.
14. Saidov, H. (2025, August 29). "Samarqand", "Oyina", "Behbudiya". In *Official Website of 'Patriot' Newspaper*. Available at: <https://mv-vatanparvar.uz/799/>.
15. Tavallo. (1913). Newspaper of 'Samarkand'. *Newspaper of 'The Translator'*, 217.